

YANGI O'ZBEKISTONDA XAVFSIZLIKNING HUQUQ ASOSLARI

Muhammadjon Tursunov

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

tursunovm976@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.16979895>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida xavfsizlik masalalarining huquqiy jihatdan mustahkamlanishi tahlil qilingan. Unda davlat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi hamda axborot xavfsizligiga doir normalarning konstitutsiyaviy asoslari yoritilib, milliy va xalqaro xavfsizlik tamoyillari bilan uyg'unligi ochib berilgan. Shuningdek, yangi konstitutsiyaviy islohotlarning fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat barqarorligi va davlat manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, davlat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, axborot xavfsizligi, konstitutsiyaviy kafolatlar, xalqaro tamoyillar.

Аннотация: В статье рассматриваются конституционные основы обеспечения безопасности в новой редакции Конституции Республики Узбекистан. Особое внимание уделено нормам, касающимся государственной, общественной и информационной безопасности, а также их взаимосвязи с международными принципами безопасности. Отмечена роль конституционных реформ в укреплении прав и свобод граждан, защите интересов государства и общества, а также в обеспечении стабильного развития страны.

Ключевые слова: безопасность, государственная безопасность, общественная безопасность, информационная безопасность, конституционные гарантии, международные принципы.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi asosida huquqiy-demokratik davlat hamda rivojlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida muhim islohotlar amalga oshirdi. Har qanday demokratik davlat kabi, O'zbekiston ham Konstitutsiyada belgilangan fuqarolarning huquq va manfaatlarini kafolatlash bilan bir qatorda, davlat va jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalariga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Tabiiyki, 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada xavfsizlikka oid masalalarning o'z aksini topishi dolzarbdir. Shu bilan birga, aynan jamoat xavfsizligiga oid masalalarga ustuvor ahamiyat berilishi bugungi kun talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur yo'nalishda dastlabki konseptual yondashuv 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmonda o'z ifodasini topdi. Unda jamoat xavfsizligi "jamiyatning qonunga xilof xatti-harakatlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa turdagi tahdidlardan himoyalanganligi, u jamiyatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi hamda inson huquq va erkinliklarining to'laonli ta'minlanishiga yordam beradi" tarzida izohlandi [1].

Shuni alohida qayd etish joizki, 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida"gi Qonunda xavfsizlikning ayrim ko'rinishlari (davlat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, shaxsiy xavfsizlik) milliy xavfsizlik tushunchasi doirasida ifodalangan bo'lsa-da, bu tushunchalarning mazmuni qonun va qonunosti hujjatlarda to'liq ochib berilmagan edi [2].

Umuman olganda, xavfsizlik turli mezonlarga ko'ra tasnif qilinadi. Xavf manbalariga qarab u tabiiy, texnogen va ijtimoiy xavfsizlik sifatida ajratiladi. Shuningdek, jamiyat hayotining

asosiy yo'nalishlariga tayanib xavfsizlik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy turlarga bo'linadi. Bu tasnif u yoki bu sohada olib boriladigan faoliyat samaradorligini oshiradi.

Konstitutsiyaning "Tashqi siyosat" deb nomlangan IV bobida xavfsizlikka oid tamoyillar alohida o'rin egallaydi. Unga muvofiq, O'zbekiston davlat va xalq manfaatlaridan kelib chiqib xalqaro tashkilotlarga qo'shilishi yoki ulardan chiqishi mumkin [3]. Shu prinsipial asosdan kelib chiqib, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son Farmon bilan tasdiqlangan "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha 2021–2026-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiya"da O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, hududiy yaxlitlik va chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquq normalariga asoslanishi qat'iy belgilab qo'yildi [4].

Garchi bunday qoidalar avvalgi huquqiy hujjatlarda ham uchragan bo'lsa-da, ular Konstitutsiyada bevosita normativ asos sifatida ifodalanmagan edi. Yangi tahrirda esa xavfsizlik bilan bog'liq qoidalar konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi va mamlakatimizning tinchlikparvar tashqi siyosatining asosiy tayanchi sifatida xizmat qilmoqda.

Ilmiy manbalarda milliy, davlat va jamoat xavfsizligi tushunchalari bilan bir qatorda, xalqning konstitutsiyaviy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish zaruriyati alohida ko'rsatib o'tiladi. Masalan, tabiiy yoki texnogen omillardan yuzaga keladigan tahdidlarning oldini olish yoki ularning salbiy oqibatlaridan himoyalaniшни ta'minlovchi huquqiy normalar tizimi xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida ko'rsatiladi (Staxov, 2006: 23) [5].

Davlat va jamoat xavfsizligi doirasida asosiy tahdidlar sifatida terroristik tashkilotlar, ekstremistik guruhlar faoliyati, millatlararo va diniy nizolarni qo'zg'atishga qaratilgan harakatlar, shuningdek, davlatning konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilishga qaratilgan faoliyat e'tirof etiladi. Shu sababli inson huquqlari va erkinliklarini samarali himoya qilish, fuqarolarning sha'ni va qadriyatlarini himoyalash nuqtai nazaridan yangi Konstitutsiyada xavfsizlik masalalarining alohida o'rin egallashi yuqori bahoga loyiqdir. Masalan, inson huquqlari va erkinliklari faqat qonunga muvofiq hamda konstitutsiyaviy tuzum, jamoat xavfsizligi, aholi salomatligi, boshqa fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish maqsadida zarur bo'lgan darajada cheklanishi mumkinligi Konstitutsiyaning 21-moddasida belgilandi [6].

Bundan tashqari, axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi ham faqat qonun doirasida, davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa ma'lumotlarni himoya qilish, shuningdek jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Bu qoidalar mamlakatimizning xalqaro imidjini mustahkamlash bilan birga, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka ham xizmat qiladi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat va jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid normalarning belgilanishi fuqarolarning hayoti, sog'ligi, sha'ni va qadriyatlarini turli tahdidlar, favqulodda vaziyatlar hamda huquqbuzarliklardan himoya qilishga qaratilgan muhim kafolatdir. Bu qoidalar milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, jamiyat barqaror rivojlanishining asosiy huquqiy poydevori sifatida ham xizmat qiladi.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirishi chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmon.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida"gi 467-I-son Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023-yil. 18-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-noyabrdagi PF-188-son Farmoni. 9-qism, "a" band.
5. Staxov A.I. Administrativno-publichnoe obespechenie bezopasnosti v Rossiyskoy Federatsii. Moskva: Yuniti-Dana, Zakon i pravo, 2006. – S. 23.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023-yil. 21-modda, 3-qism.

INNOVATIVE
ACADEMY